

## OGAHY ASARLARIDA QO‘LLANGAN ZONIMLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL TAHLILI

**Xudayberganova Munira Safarboy qizi**

Urganch davlat universiteti filologiya fakultetini

lingvistika o‘zbek tili magistr talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad rizo Ogahiy asarlaridagi tuyoqli hayvon nomlari, qush nomini anglatuvchi terminlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Ogahiy asarlaridagi zoonimlarni o‘rganish davomida turkiy qatlamga mansub zoonimlardan tashqari arabiy va forsiy qatlamga mansub bo‘lgan zoonimlarni ham uchratishimiz mumkin.


**Kalit so‘zlar.** zoonim, sema, funksiya, termin, arab, forsiy.

Har qanday xalqning o‘z tarixi va o‘sha tarixni aks ettiradigan eng noyob boyligi va ulkan merosi bo‘ladi va bunday boylikni biz til deb ataymiz. Til har bir millatning yashash tarizini, urf-odatlarini-yu udumlarini o‘zida aks ettiradigan mukkamal va buyuk meros hisoblanadi. Til lug‘at boyligining shakllanish jarayonini kuzatish uchun qadimiy manbalar tilini, leksikasini o‘rganish va hozirgi tilda aks etgan leksika bilan qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qadimiy manbalarni o‘rganish, ularni tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli biz ushbu maqolamizda Ogahiy asarlarini lingvistik jihatdan o‘rganamiz va onomastik jihatdan tahlil qilamiz. Bilamizki, turkiy xalqlar qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan, odamlar va hayvonlar yonma-yon yashashgan.

Ming yillar davomida chorvachilik va ovchilik rivojlanishi shu sohaga doir terminlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan. F.f.d., Professor B. Abdushukurov o‘zining ilmiy tadqiqotida 11-14-asrlar turkiy obidalar tilidagi hayvonlar terminlarini quydagicha mavzuviy guruhlarga ajratib tahlil qilganlar.

1. Sut emizuvchilar hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar;
2. Qush nomini anglatuvchi terminlar;
3. Sudralib yuruvchi hayvon nomlari;

Ba’zi ilmiy tadqiqotlarda mavzuviy guruhlarga ajratishni biroz boshqacharoq shaklda ko‘rishimiz mumkin.





1. Hayvonlarning umumiy nomlari;
2. Uy hayvon nomlari;
3. Yovvoyi hayvon nomlari;

Biz quyida Ogahiy asarlari matnida uchraydigan zoonimlarni yuqoridagi mavzuviy guruhlar asosida tahlil qilamiz.

### Hayvonlarning umumiy nomlari

Ogahiy asarlaridagi muayyan hayvon nomini anglatadigan terminalar o'zining qadimiyligi jihatidan ajralib turadi. Hayvon ma'nosini anglatadigan **mol** leksemasi jamiyat taraqqiyoti natijasida boylik, davlat ma'nolarini bildirgan. Ogahiy asarlari matnida ham **mol** so'zi uy hayvonlarining barchasi uchun umumiy nom bo'lishi bilan birga, boylik, mulk, keng iste'mol mollari ma'nosida ham qo'llanilgan.

Olib har xayl barda beshumora,  
Mato-u **molg'**a xud ne shumora. (64)

Yuqoridagi bayt orqali **mol** so'zi mulk ma'nosini anglatayotganligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi parchada esa mol so'zi hayvon nomi ma'nosini anglatayapti.


...Va afvoji qohirakim, atrof-u javonibg'a chopovullab borib erdilar, har favj bir tarafdin ko'p asir va **mol-u** mavoshiy va ot va teva va qo'zi va qo'y o'lja qilib, muaskari humoyung'a kelturdilar...(102)

### Uy hayvon nomlari

Mavoti, ot, qo'zi, mol, teva, qo'y, yilqi, toy, g'unon, ashxob, raxsh, yakron, it, eshak kabilar uy hayvonlari nomini anglatadigan terminlar hisoblanadi.

**Teva** yig'naldi hadd-u sondin ortuq,  
O'guz ul navkim, imkondin ortuq.  
Yig'ilmish **yilqi** andoq beshumora,  
Ki atrofig'a etmaydur nazora. (191)

Tuya-tuyasimonlar oilasi, qadoq oyoqlilar turkumiga mansub juft tuyoqli





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

sut emizuvchi hayvon<sup>1</sup> ; bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sut emizuvchi ish hayvoni (O'TIL,

4, 222). **Tuya** leksemasi O'rxun-Enasoy yodgorliklarida teba // teva, eski o'zbek

tili obidalarida, Alisher Navoiy asarlari leksikasida teva shaklida uchraganligi aniqlangan<sup>2</sup>. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tuya, shevalarda teva shakllari iste'molda ekanligi ma'lum. Yuqoridagi baytda **yilqi** so'zini ham ko'rishimiz mumkin, yilqi so'zi M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida bo'sh, bog'lanmagan, o'z holicha yurgan hayvonga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, Ogahiy asarlarida otlar podasi ma'nosida qo'llanilgan.

### Yovvoyi hayvon nomlari

Tovushqon, darranda, qulon, she'r, yo'lbars, ablaq (ola-bula tusli, yo'l-yo'l rangli yovvoyi ot), sibo (yovvoyi, vaxshiy hayvonlar) kiyik kabi yovvoyi hayvonlar ma'nosini anglatadigan terminlar hisoblanadi.

...Bo'lubon qahqahazan kabki dar ham,

**Tovushqon** har qadamda jilvagar ham... (285-bet)

Ushbu baytdagi **tovushqon** so'zi shevaga oid so'z bo'lib, quyon ma'nosini anglatadi. Navoiy asarlari tilida ham yovvoyi dala quyoni ma'nosini bildiradi. Ba'zi manbalarda **xargush** variant ham ishlatilgan, **xargush** yovvoyi quyon degan ma'noni beradi.

Ogahiy asarlari tilida turkiy qatlamga oid zoonimlardan tashqari arabiy va forsiy qatlamga mansub zoonimlar ham talaygina qo'llanilgan.

...juyushi daryoxurushning barcha **mavoshiy** va matoyosin sug'orib, shodob va serob qildilar. andin so'ng meshk va mithalarig'a suv oldurub, yo'l azimatig'a mustaid va omoda etdilar... (91)

<sup>1</sup>Xolmonova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug'ati (o'zbek, ingliz va rus tili materiallari asosida). Lug'at. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.-260 b.

<sup>2</sup>Abduvalieva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – T.: Fan, 2016. B.116.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Yuqoridagi parchada **mavoshiy** soʻz arabiy qatlamga mansub leksema hisoblanib, uy hayvonlari :qoʻy, sigir kabi maʼnolarda keladi. Bundan tashqari forscha hayvon maʼnosini bildiradigan termin ishlatilgan.

...ul hazratgʻa murassa xilʻat kiydurub, bir **raxshi** tozinajod va ashhabi parinihod mindurdikim...(338)

Ushbu parchada raxsh leksemasi forsiy qatlamga mansub boʻlib, olachipor, chopqir, chiroyli ot degan maʼnoda ishlatiladi.

Ogahiy asarlari matnini tahlil qilar ekanmiz muayyan qisminin hayvon nomlarini ifodalovchi soʻzlar, yaʼni zoonimlar tashkil qilishini koʻrib chiqdik va hayvon nomi bilan bogʻliq soʻzlar paradigmasi uslubiy boʻyoqdorligi bilan ajralib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ogahiy. Devon. 2-jild, Toshkent, 1972.
2. Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy “Riyozi-d-davla”, Urganch, “Quvonchbek-Mashhura”, 2020.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-2 jild, Moskva, 1981.
4. Xolmonova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli poremalarning izohli lugʻati (oʻzbek, ingliz va rus tili materiallari asosida). Lugʻat. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
5. Abduvalieva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – T.: Fan, 2016.
6. Abdushukurov. B., Sindarov I., XI-XIV asr turkiy yozma manbalarda qoʻllanilgan zoonimlar, 2019, Oltin bitiglar.
7. Dadaboyev H., Oʻzbek terminologiyasi. Oʻquv-uslubiy majmua. – T.: 2019.

